



**NKMK**  
Navoiy Kon-Metallurgiya Kombinati

# NKMK — KELAJAKNI BARPO ETUVCHI QUDRAT

**BARQAROR  
RIVOJLANISH YO'LI**

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati  
2026-yil





“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ jahonda oltin ishlab chiqarish bo'yicha yetakchilaridan biri va O'zbekiston Respublikasi sanoatining bayroqdori hisoblanadi.

NKMK o'nlab yillar davomida izchil tarzda ishlab chiqarishning asosiy bosqichlarini yuqori samarali vertikal integratsiyalashgan yagona tizimga birlashtira borib, milliy iqtisodiyotning mustahkam poydevori bo'lib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi yillari NKMKning ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va jahonning yetakchi oltin ishlab chiqaruvchilari orasidagi mavqeini mustahkamlashda muhim bosqich sifatida kompaniya tarixida alohida o'rin tutadi.

Yangi O'zbekistonda keng ko'lamli yangilanish va izchil islohotlar kechayotgan keyingi yillarda kompaniya global bozorlarda ishonchli hamkor va mamlakat iqtisodiy transformatsiyasining muhim ishtirokchisi sifatida o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga ishonch bilan qadam qo'yimoqda.

Jahonda tobora kuchayib borayotgan raqobat sharoitida texnologik yetakchilik strategik ahamiyat kasb etmoqda. Biz ilmiy-texnik va innovatsion salohiyatni barqaror yuksalish, samaradorlik va uzoq muddatli rivojlanishning asosi hisoblab, izchil mustahkamlab borayapmiz.

Sanoat va ekologik xavfsizlikni ta'minlashdan tortib, faoliyat olib borayotgan hududlarda inson kapitali va ijtimoiy farovonlikni mustahkamlashgacha bo'lgan barqaror rivojlanish tamoyillarini izchil joriy etish korporativ siyosatning ajralmas qismi hisoblanadi. Moliya institutlari va reyting agentliklari tomonidan berilayotgan ijobiy baholar Kompaniyamizda ishlab chiqarishning barqaror sur'ati ta'minlanayotganini va korporativ boshqaruv tizimi samaradorligining yanada oshib borayotganini tasdiqlaydi.

Insonlar – kombinatning asosiy boyligi. Jamoamizning malakasi, ishga sadoqati va yuksak mas'uliyati yutuqlarimiz va olg'a intilishimizning mustahkam poydevorini belgilab beradi.

NKMK ishlab chiqarish an'analarini saqlab hamda to'plangan tajriba va ilg'or xalqaro amaliyotlarga tayanib, o'z mavqeini ishonchli tarzda mustahkamlamoqda.

**Q.Sanaqulov,**  
**“NKMK” AJ Boshqaruvi raisi – Bosh direktori**



**NKMK**  
Navoiy Kon-Metallurgiya Kombinati

## NKMK TARIXI

**NKMK 1958-yilda tashkil topgan.** Minglab ishchilar, muhandislar, olimlar va rahbarlarning fidokorona mehnati tufayli Qizilqum sahrosida yirik ishlab chiqarish korxonalari, zamonaviy infratuzilmaga ega Navoiy, Zarafshon va Uchquduq shaharlari barpo etildi.

**“Muruntov” konining** ochilishi XX asrning ikkinchi yarmida jahon oltin qazib olish sohasida qilingan eng katta kashfiyot sifatida tan olindi. 1967-yilda konda birinchi portlatish amalga oshirildi. 1969-yilda 2-gidrometallurgiya zavodida “Muruntov” konida qazib olingan ma’dandan 11 kg. 820 gr. bo’lgan birinchi oltin yombisi olindi. Qizilqum hududi O’zbekistondagi eng yirik oltin qazib oluvchi vohaga aylandi.

Bugungi kunda NKMK **jahonda oltin ishlab chiqaruvchi yirik kompaniyalar** qatoriga kiradi. Kombinat ishlab chiqarish jarayonlari to’liq amalga oshiriladigan yirik sanoat klasteri bo’lib, loyihalashtirish va qurishdan tortib kapital ta’mirlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha kompaniyaning o’z kuchi bilan amalga oshiriladi. Bu yuqori darajadagi texnologik barqarorlik va operatsion samaradorlikni ta’minlaydi.

NKMKning “999,9” soflikdagi oltin quymalari O’zbekistonning brendiga aylandi va yuqori sifati, raqobatbardoshligi va nisbatan past tannarxi bilan ajralib turadi. Kompaniya mahsulotlari London va Tokioning nufuzli birjalarida “Optimal yetkazish” (“Good delivery”) maqomi bilan tan olingan.

## MUHIM VOQEALAR

**1958** — **1967**

Kompaniya Qizilqum kengliklaridagi mineral resurslarini o'zlashtirish uchun tashkil topgan..

Dunyodagi eng yirik oltin konlaridan biri – “Muruntov” konini sanoat miqyosida o'zlashtirish boshlandi.'

**1969** — **1991**

Og'irlig 11 kg. 820 gr. bo'lgan birinchi oltin yombisi ishlab chiqarildi.

O'zbekiston davlat mustaqilligi e'lon qilindi.

**1995** — **2008**

3-gidrometallurgiya zavodi ishga tushirildi.

3-GMZda “BIOX” bakterial oksidlash texnologiyasi ishga tushirildi.

**2010** — **2017**

4-gidrometallurgiya zavodi ishga tushirildi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Butunjahon intellektual mulk tashkiloti tomonidan kombinat mutaxassislari murakkab tarkibli oltin rudalaridan oltinni ajratib olish texnologiyasini yaratganliklari uchun oltin medali bilan taqdirlandi.

**2019** — **2021**

3-GMZda yuqori texnologiyalarga asoslangan majmua – Filtrlash, quritish va kuydirish sexi ishga tushirildi.

Korxona aksiyadorlik jamiyati sifatida qayta tashkil etildi. 5-gidrometallurgiya zavodi, 7-gidrometallurgiya zavodi ishga tushirildi. 2-gidrometallurgiya zavodining 2-navbati ishga tushirildi.

**2022** — **2023**

Kombinat mutaxassislari “Texnologik va ishlanishi murakkab bo'lgan oltin tarkibli ma'danlarni qayta ishlash va o'zlashtirishning kompleks texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish” bo'yicha ilmiy-amaliy ishlanmasi uchun fan va texnika sohasida birinchi darajali Davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

6-gidrometallurgiya zavodi ishga tushirildi.

**2024** — **2025**

Yuk ko'tarish quvvati 254 tonna bo'lgan “Komatsu 860E-1K” rusumli avtoag'dargichlar “Muruntov” konida ish boshladi.

“Zarmitan” konida zamonaviy muhandislik inshooti – Skipli stvol ishga tushirildi.

# KOMBINATNING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGI DAVRIDAGI RIVOJLANISHI

Mustaqillik O'zbekiston kon-metallurgiya sanoatini transformatsiya qilish va NKMKni barqaror rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Mustaqillik yillarida kompaniyaning keng ko'lamli modernizatsiyasi, ishlab chiqarish quvvatlarining sezilarli darajada kengaytirilishi amalga oshirilib, jahon miqyosida yirik oltin ishlab chiqaruvchilari qatoridagi o'rni mustahkamlandi.

Yangi O'zbekiston davri kon-metallurgiya sanoati uchun ham, kombinat jamoasi uchun ham chinakam yuksalish yillari bo'lyapti. Keyingi yillarda korxonada yirik investitsion loyihalari amalga oshirildi.

Mustaqillik yillarida oltita gidrometallurgiya zavodi, jumladan, to'rttasi Yangi O'zbekiston davrida ishga tushirildi. Bu mamlakat sanoat salohiyatining sezilarli darajada oshishi, ishlab chiqarishning barqaror o'sishi va kompaniyaning jahon bozorida mavqei mustahkamlanishini ta'minladi.



Keyingi o'n yilda Navoiy kon-metallurgiya kombinati bir qator muhim yutuqlarga erishdi:

- milliy boyligimiz hisoblangan qazilma resurslarni o'zlashtirishda innovatsion yondashuvlar joriy etilib, ulardan samarali va oqilona foydalanish ta'minlandi;
- zavod va korxonalarni loyihalashdan tortib, ularni qurish va ishga tushirishgacha bo'lgan barcha jarayonlar mahalliy mutaxassislar tomonidan amalga oshirilmoqda;
- soha uchun zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, innovatsion fikrlaydigan yuqori malakali mahalliy kadrlar tayyorlandi;
- konchilik sohasiga kadrlar tayyorlaydigan Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti tashkil etildi;
- mahalliyashtirish dasturi doirasida murakkab asbob-uskunalar va zamonaviy jihozlar ishlab chiqarish o'zlashtirildi;
- ishlab chiqarish jarayonlariga raqamlashtirish, avtomatlashtirish, intellektual boshqaruv tizimlari va sun'iy intellekt kabi ilg'or texnologiyalar joriy etilmoqda;
- konchilik sohasida ekologik standartlar va yashil energiyadan foydalanish izchil ravishda keng joriy etilmoqda.



# KOMPANIYA MISSIYASI – barqaror kelajak va farovonlik uchun mas’uliyatli oltin qazib olish

## QADRIYATLARIMIZ:



### **Bizning ishchi-xodimlarimiz**

Biz yangi avlodlar uchun porloq kelajak yaratib, ishchi-xodimlarimiz, ularning oilalari haqida qayg’uramiz.



### **Xavfsizlik**

Mehnat xavfsizligini ta’minlashda doimo ilg’or texnologiya va standartlarni joriy etmoqdamiz.



### **Samaradorlik**

Biz faoliyatimizda yuqori natijalarga erishishni harajatlarni hamda barcha resurslarimizni tejash orqali amalga oshiramiz.



### **Mas’uliyat**

Biz o’z ishimizda mas’uliyatni zimmamizga olib, eng yuqori ekologik va ijtimoiy standartlarga amal qilmoqdamiz.



### **Innovatsiyalar**

Biz ishlab chiqarishni rivojlantirish va modernizatsiyalashda innovatsion texnologiyalarga tayanamiz.



### **Hamkorlik**

Biz sanoatning umumiy maqsadlari va o’zaro muvaffaqiyatiga erishish uchun hamkorlik qilishga intilamiz.



# BIZNING FAOLIYATIMIZ

NKMKning ishlab chiqarish zanjiri vertikal ravishda integratsiyalash tamoyilga asoslangan bo'lib, bu qazib olishdan tortib qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan har bir bosqichni qamrab olish imkonini beradi. Oltin qazib olish bo'yicha asosiy obyektlar **Markaziy, Shimoliy, Janubiy va "Qizilqum"** kon boshqarmalarida joylashgan. Mazkur sanoat majmualari **Navoiy, Uchquduq, Zarafshon, Nurobod** shaharlarini tashkil etish va rivojlantirishning poydevori bo'ldi.

Bugungi kunda kombinat faoliyati O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilmoqda.

**4 ta kon boshqarmasi**

**12 ta yirik kon**

**10 ta qayta ishlash zavodi**

Shu bilan birga, kombinat tarkibida Navoiy mashinasozlik zavodi, Zarafshon qurilish boshqarmasi va boshqa bo'linmalar ishlab kelmoqda.



# MOLIYAVIY BARQARORLIK

**3.15 mln**

troy unsiya oltin  
ishlab chiqarildi

**\$ 10.8 mlrd**

sof tushum

**\$ 1358**

bir troy unsiya ishlab  
chiqarish va qo'llab-  
quvvatlash bo'yicha  
umumiy xarajatlar (AISC)

**\$ 1092**

bir troy unsiya umumiy  
pul xarajatlari (TCC)

**64.2%**

moslashtirilgan EBITDA  
bo'yicha rentabellik

**\$ 6.895 mlrd**

moslashtirilgan EBITDA

**0.3x**

sof qarz / moslashtirilgan  
EBITDA

**\$ 4.65 mlrd**

operatsion faoliyatdan  
sof pul oqimi

**\$ 3.5 mlrd**

sof foyda

\* 2025-yildagi asosiy ko'rsatkichlar

NKMKning moliyaviy barqarorligi muvozanatli o'sish va operatsion faoliyat samaradorligi orqali shakllanadi. Vertikal integratsiyalashgan biznes modeli hamda keng ko'lamli ishlab chiqarish bazasi asosiy moliyaviy va operatsion ko'rsatkichlarda o'z aksini topib, tashqi omillarga nisbatan barqarorlikni ta'minlaydi va uzoq muddatli rivojlanish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

|                    | Reyting | Prognoz | Izoh                |
|--------------------|---------|---------|---------------------|
| FitchRatings       | BB      | Stable  | "Barqaror" prognozi |
| S&P Global Ratings | BB      | Stable  | "Barqaror" prognozi |



# MOLIYAVIY BARQARORLIK

**55 yil+ tajriba  
va professional jamoa**

NKMK sohadagi ko'p yillik tajribani kuchli mutaxassislar jamoasi bilan birlashtiradi, bu esa kompaniyaning yuqori operatsion samaradorligi va barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

**Ishlab chiqarish hajmi  
va xarajatlar samaradorligi  
bo'yicha yetakchilik**

Kompaniya dunyodagi eng yirik va nisbatan kam xarajatli oltin ishlab chiqaruvchilar qatoriga kiradi hamda ushbu o'rinlarni yanada mustahkamlash salohiyatini saqlab qoladi.

**Sifatli aktivlar va  
rivojlangan resurs bazasi**

|                |            |             |
|----------------|------------|-------------|
| Investitsiya   | dasturi    | ishlab      |
| chiqarish      | hajmi va   | operatsion  |
| samaradorlikni | oshirishga | qaratilgan. |

**Puxta o'ylangan  
moliyaviy siyosat**

|              |                             |
|--------------|-----------------------------|
| Past qarz    | yuki va kapitalni samarali  |
| taqsimlash   | majburiyatlarni barqaror va |
| mas'uliyatli | boshqarishga qaratilgan.    |

# RESURS BAZASI VA ZAXIRALAR

**140 mln  
troy unsiya**

NKMK mineral-resurs bazasi

**100 mln  
unsiyadan ortiq**

Dunyodagi eng yirik konlardan biri bo'lgan "Muruntov" koni zaxiralari

Barqaror o'sishni ta'minlash uchun NKMK tomonidan resurs bazasini ko'paytirish bo'yicha uzoq muddatli strategiya amalga oshirilmoqda, u quyidagilardan iborat:

**Faol geologiya-qidiruv**

**Yangi konlarni o'zlashtirish**

**Mineral-xomashyo bazasini kengaytirish**

**Ilg'or texnologiyalarni joriy etish**

"Muruntov" koni





# TEXNOLOGIYA VA INNOVATSIYALAR

NKMK faoliyati barcha yo'nalishlarda ilmiy ishlanmalar va innovatsion yechimlar bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilmoqda.

- Tadqiqot va ishlanmalar

**1 962 ta**  
ratsionalizatorlik taklifi  
va ilmiy-tadqiqot  
ishlanmalari

**58 ta**  
patent mamlakatimiz  
mustaqillik yillarida  
olingan

**248 ta**  
patent ixtiro va foydali  
modellar uchun  
(1957-2024-yillar)



# TEKNOLOGIYA VA INNOVATSIYALAR

Bugungi kunda xodimlar tarkibida 9 nafar fan doktori va 25 nafar fan nomzodi, shu jumladan 4 nafar professor va 5 nafar dotsent faoliyat yuritmoqda. Ularning bilim va tajribasi texnologiyalarni rivojlantirish, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish va yangi avlod mutaxassislarini tayyorlashd hal qiluvchi ahamiyatga ega.

- Kombinat tizimida quyidagi ilmiy-tadqiqot va innovatsiya bo'linmalari samarali faoliyat yuritmoqda:



Ilg'or texnologiyalar markazi



Markaziy loyihalash byurosi



2, 3-gidrometallurgiya zavodlaridagi Markaziy zavod laboratoriyalari



Markaziy ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi




Shimoliy kon boshqarmasining Markaziy fizika-kimyoviy laboratoriyasi



Gamma-aktivlashtirilgan tahlil markaziy laboratoriyasi



Markaziy konstruktorlik byurosi





# RAQAMLASHTIRISH

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq, NKMK ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan kompleks raqamli transformatsiya dasturini amalga oshirmoqda.

Kompaniya faoliyatida sun’iy intellekt, katta hajmdagi ma’lumotlar tahlili va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlariga asoslangan yechimlar faol qo‘llanilmoqda.

So‘nggi besh yilda 200 ga yaqin ishlab chiqarish va boshqaruv vazifalarini bajaradigan 40 dan ortiq korporativ axborot tizimlari ishlab chiqildi. Raqamlashtirish darajasini oshirish maqsadida 12 ta raqamlashtirish dasturi va 67 ta raqamli loyihani amalga oshirishni o‘z ichiga olgan 2030-yilgacha mo‘ljallangan NKMK raqamli strategiyasi amalga oshirilmoqda.

# BARQAROR RIVOJLANISH

NKMK uchun barqaror rivojlanish uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta'minlashning asosiy omilidir. Kompaniya ESG tamoyillarini boshqaruv qarorlarini qabul qilish, operatsion samaradorlikni oshirish va investorlar hamda boshqa manfaatdor tomonlar ishonchini mustahkamlash uchun asos sifatida ko'radi.

Ushbu tamoyillarga izchil amal qilish "Sustainable Fitch" xalqaro reyting agentligi tomonidan mustaqil ravishda tasdiqlandi va NKMKga 2025-yilda "3" darajadagi reyting berildi.

ESG tamoyillari NKMK faoliyatining barcha asosiy yo'nalishlariga, shu jumladan, ekologik mas'uliyat (Environmental), mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi, shuningdek, ijtimoiy mas'uliyat (Social) va korporativ boshqaruv (Governance) masalalariga izchil joriy etilmoqda.



## MEHNATNI MUHOFAZA QILISH VA XAVFSIZLIK TEXNIKASI

Xavfsizlik va insonga g'amxo'rlik ishlab chiqarish jarayonining muhim qismi bo'lib, har bir ishchi-xodimning bilimi, tajribasi va mas'uliyati yagona tizimga birlashtirilgan. Biz kompaniyada xavfsizlik madaniyatini rivojlantiramiz, xavf-xatarlar minimallashtiriladigan, kasbiy mahorat rivojlanadigan, inson kapitali asosiy boyligimiz bo'lib qoladigan muhitni yaratamiz.

Kompaniyada barcha ishlab chiqarish bo'linmalari va ishchi-xodimlarni qamrab oluvchi mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi tizimi joriy etilgan.



## XODIMLARNI BOSHQARISH

**Bugungi kunda kombinatda 50 ming nafardan ortiq ishchi-xodim ishlaydi.**

Kompaniya O'zbekistondagi eng yirik ish beruvchilaridan biridir. Ishchi-xodimlar kompaniyaning asosiy boyligi va barqaror rivojlanishining asosidir. Ish o'rinlarini yaratish va bandlikni ta'minlash orqali NKMK hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shib, quyidagi yo'nalishlarda tashabbuslarni amalga oshirmoqda:

- Hududlar infratuzilmasini rivojlantirish;
- Yangi ish o'rinlarini yaratish va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash;
- Gender tenglik va inklyuzivlikni oshirish;
- Yoshlarni rivojlantirish va malakali kadrlar tayyorlash imkoniyatlari;
- Homiylik va xayriya dasturlari;
- Sportni qo'llab-quvvatlash;
- Oltinni izlovchilar usulida qazib oluvchilarni qo'llab-quvvatlash.



# RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA YASHIL ENERGIYA

NKMK suv va energiya iste'moli samaradorligini oshirish va ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish orqali tabiiy resurslardan mas'uliyatli foydalanish yondashuvlarini izchil amalga oshirmoqda. Suv ta'minotining aylanma tizimlarini joriy etish va ishlab chiqarishning umumiy energiya samaradorligini oshirish muhim yo'nalish hisoblanadi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, jumladan, ishlab chiqarish va ma'muriy obyektlarda quyosh energiyasini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda, bu esa energiya barqarorligini oshirish va atrof-muhitga ta'sirni kamaytirishga xizmat qiladi.



# BIOXILMAXILLIK

Milliy ekologik tashabbuslar doirasida NKMK faoliyat olib borayotgan hududlarda tabiiy muhitni saqlash va tiklash bo'yicha dasturlarni izchil amalga oshirmoqda. Yashil hududlarni rivojlantirish, ishlab chiqarish obyektlari atrofida ko'kalamzorlashtirishni kengaytirish, shuningdek, sanoat hududlarida barqaror ekotizimlarni tiklash va shakllantirishga ustuvor e'tibor qaratilmoqda.



# KORPORATIV BOSHQARUV

Samarali korporativ boshqaruv NKMKning barqarorligi, shaffofligi va uzoq muddatli muvaffaqiyatining poydevoridir. Boshqaruv tizimimiz shunday tashkil etilganki, har bir strategik qadam puxta o'ylangan, har bir qaror esa shaffof va tajriba bilan mustahkamlangan bo'lishi lozim.

Shaffoflik va ochiqlik NKMKning asosiy tamoyillari bo'lib qolmoqda. Biz muntazam ravishda moliyaviy va operatsion natijalarni e'lon qilamiz, strategik tashabbuslarni oshkor etamiz va boshqaruv tajribasi bilan o'rtoqlashamiz, bu esa manfaatdor tomonlar uchun ishonchli asosni yaratadi.

Tizimli nazorat va strategik rivojlanishni ta'minlash uchun Kuzatuv kengashi huzurida quyidagi qo'mitalar va xizmatlar faoliyat yuritadi:

Bu korporativ boshqaruv tuzilmasi qarorlar qabul qilishning yaxlitligini, strategik moslashuvchanlikni va yuqori shaffoflik standartlarini ta'minlaydi. U NKMKga global bozorda ishonch bilan rivojlanish, investorlar va hamkorlar ishonchini mustahkamlash hamda uzoq muddatli o'sish va barqaror rivojlanish uchun mustahkam poydevor yaratish imkonini beradi.



- **Strategiya va investitsiyalar qo'mitasi**

- **Audit qo'mitasi**

- **Tayinlovlar va haq to'lash qo'mitasi**

- **Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi**

- **Ichki audit xizmati**

- **Komplayens xizmati**

- **Korporativ kotibiyat**

# 2025-YILDAGI BARQAROR RIVOJLANISHNING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

## Ekologiya va iqlim

**100%**

yoz mavsumida issiqlik energiyasiga bo'lgan ehtiyoj to'liq qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan qoplanmoqda

**6**

ta hisobot davrida chang va gazni tozalash inshootlari o'rnatildi

**35%**

2030-yilgacha suvni qayta va bir necha marta ishlatishning maqsadli yo'nalishi

**> 443 000**

dan ortiq ko'chat o'tqazildi

## Ijtimoiy korporativ mas'uliyat va mehnatni muhofaza qilish

**>50 000**

nafardan ortiq ishchi-xodim

**2628 ta**

yangi ish o'rni

**12%**

ishchi-xodimlar – ayollar

**>17 000 nafardan**

ortiq ishchi-xodim qayta tayyorlandi

**700 nafar**

oliy o'quv yurtlarining bitiruvchilari kombinat korxonalariga ishga qabul qilindi

**0,32 LTIFR****0,08 FAR**

## Korporativ boshqaruv

**111 mln \$**

mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi

**580 mln \$**

tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasi doirasida mahsulot xarid qilindi

**2 nafar**


Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi




## **SERTIFIKATLAR VA TASHKILOTLARGA A'ZOLIK**

- 1 London oltin quymalari bozori assotsiatsiyasi a'zosi
- 2 Oltin – Proaktiv monitoring sertifikat (Proactive Monitoring Certificate)
- 3 Mas'uliyatli Oltin Sertifikati (Responsible Gold Certificate – RGG LBMA)
- 4 O'zDSt ISO/IEC 17025:2019 – Sinov va kalibrlash laboratoriyalarining malakasiga qo'yiladigan umumiy talablar
- 5 ISO 9001:2015 – Sifat menejmenti tizimi
- 6 ISO 14001:2015 – Ekologik menejmenti tizimi
- 7 ISO 45001:2018 – Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi menejmenti tizimi
- 8 ISO 37001: 2016 – Korrupsiyaga qarshi kurash menejmenti tizimi
- 9 O'z DSt ISO 50001:2019 – Energetika menejmenti tizimi
- 10 "IWIM" – tog'-kon sanoatidagi Xalqaro ayollar tashkiloti a'zosi
- 11 Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish sohasidagi 10 ta tamoyilga rioya qilish bo'yicha global kelushuvi a'zosi
- 12 ISO/IEC 27001:2023 – axborot xavfsizligi menejmenti tizimi, xavf-xatarlarni boshqarish va maxfiy ma'lumotlar, kibertahdidlarga qarshi kurashish va bulutli texnologiyalarni himoya qilish bo'yicha muvofiqlik sertifikat







An aerial photograph of the Navoiy Metallurgical Plant (NGMK) at sunset. The image shows a large industrial complex with several large buildings, including a prominent one with a glass facade. In the foreground, there are large circular water treatment tanks with mechanical scrapers. A multi-lane highway runs through the middle of the site, with a bridge crossing over it. The background features a vast, arid landscape with distant mountains under a sky with soft orange and blue hues.

## **ALOQALAR**

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ**

**Manzil:** 210100, 210100, O‘zbekiston Respublikasi,  
Navoiy viloyati, Navoiy shahar, Navoiy ko‘chasi, 27-uy

**Veb-sayt:** [www.ngmk.uz](http://www.ngmk.uz)

**E-mail:** [info@ngmk.uz](mailto:info@ngmk.uz)

**2026-YIL**